

“Navoiyazot” Ajga qarashli oqova suvlarni biokimyoviy tozalash inshooti ko'zdan kechirildi

// 17 May 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-ajga-qarashli-oqova-suvlarni-biokimyoviy-tozalash>



“O‘zkimyosanoat” AJning “Ekologiya va “yashil” iqtisodiyot bo‘limi mas’ullari joriy yilning 12-15-may kunlari “Navoiyazot” Ajda bo‘lishdi.

“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da ekologik barqarorlikni oshirish hamda muammolarni hal etish maqsadida mas’ullar “Navoiyazot” Ajga qarashli oqova suvlarni biokimyoviy tozalash inshootini ko‘zdan kechirdilar.



Shu bilan birga, asosiy ishlab chiqarish maydonchasidagi sexlarda chang -gaz tozalash uskunalarining ishlash holati, shu jumladan, 23-sex binosiga o'rnatilgan qo'shimcha (skrubber) va boshqa texnik ko'rsatkichlar o'rganildi.

"Navoiyazot" AJ hududida "Yashil belbog'" barpo etish hamda "Yashil makon" umumilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ko'zdan kechirildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati